

## FITRAT IJODIGA TAHLILIY YONDASHUV

Rabbimqulova Go'zal Egamberdi qizi  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
1-kurs talabasi

**Annontatsiya:** Mazkur maqolada Fitratning ijodi, she'riyati hamda uning tanqidchilikdagi o'rni va mahorati yoritilgan. Fitrat o'z davrining yuqori mahoratli ijodkorlaridan hisoblanadi. Uning ijodi ko'p tarmoqlidir. Bu o'rinda barcha ijod yo'li haqda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tanid, dramaturg, filolog, professor, siyosiy, matbuot, publistitsika, inqilob, tanqidchilik, jadidchilik harakatlari.

O'zining ulkan ijod yo'li bilan barcha millat va ziyolilarga birdek tanish bo'lgan Abdurauf Fitrat yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan, tan olingan dramaturg, nosir va zabardast olimdir. O'z davri siyosatiga, ijtimoiy muhit hamda zaif xalq manfaatlariga befarq bo'lmagan olim bular bilan cheklanibgina qolmay, o'zbek tarixiga ham o'z hissasini qo'shgan shu jumladan yetuk filolog va tarjimon hamdir. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, u birinchi o'zbek professori ekanligi ham uning ijodi va shaxsiyati nechog'lik yetuk saviyali ekanligini ma'lum qiladi. Uning ijodini ikki yo'l deb qarajak, birinchisi bu ichki ruhiy kechinmalarini badiiy bo'yoqlar bilan qog'ozga tushirgan nasriy hamda she'riy asarlari. Ijodkor dil rozlarini shunday qaltis vaziyatda kimgadir aytgandan ko'ra o'z qalbi kabi pok bo'lgan qog'ozga tushirishni afzal ko'rgan. Ikkinchisi esa uning gazeta va jurnallarga yozgan kundalik maqolalari hisoblanadi. Mazkur maqolalarda siyosiy masalalarga e'tibir ko'proq qaratadi. Uning Volgabo'yi, Kavkaz, Turkiya, Hindiston, Afg'oniston matbuotlarida faol ishtirok etganligidan publistitsikasining keng ko'lamligini ko'rishimiz mumkin. Fitratni davr siyosati va ijtimoiy muhitni shu bilan birga ijodini ham omuhtalay olgan mohir

yozuvchi sifatida taniymiz. U fevral inqilobidan so'ng siyosiy muhitga sho'ng'ib ketadi. Ijodkor tanqidchilikda ham haq so'zini qo'rqmay, chiroyli usullarda yorita olgan. Bunga misol qilib Jalil Boybo'latovga javob tariqasida yozgan "Yopishmagan gajaklar" xat maqolasini keltish mumkin. Fitratning mumtoz adabiyotga tanqidi ko'proqligini ko'ramiz. Uning Yassaviy haqidagi maqolasida salbiy bo'yoqlar ko'p uchraydi. Ibrohim Haqqul ham "Oldingdan oqqan suvning qadri" maqolasida qisqacha yoritib o'tgan. Fitrat ijodini o'rganilishi Sovet inqilobi tufayli batamom to'xtatiladi va oradan vaqtlar o'tgandan so'ng yana qayta tiklana boshlaydi. Bu davr jarayonini shunday ta'riflash mumkinki, adibning ijodi o'ladi va qayta dunyo yuzini ko'radi. Fitrat ijodini o'rganib Hamid Olimjon ham. "Fitratning adabiy ijodi haqida maqolasida Fitrat ijodini sho'ro mafkurasi nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qiladi. Adib asarlarini keng ko'lamda o'rganilib, uni ommaga yoyish borasida Hamidulla Boltaboyevning "Noma'lum Fitrat" nomli maqolasi o'zining o'chmas izini qoldirgandir.

Fitratning ilk bor Buxoro maorif nozirliги nashri bo'lgan "Uchqun" jurnalida chop qilingan "Qor" sherini tahliliga nazar solamiz.

Kuchsiz, titroq, oppoq kichik tomchilar,

Turmay, tinmay tuproq uza yog'adir.

El bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?!

Ko'klarda ham ayozlikdan oqarg'an

Bir ko'z bormikim, yoshi

Bizning alam, o'lim bilan sug'orilgan.

Ushbu misralarda Fitrat qorga murojat qilib o'zining mashum taqdiridan shikoyat qilgan. Qaysidir ma'noda qor bilan dardlashgan. Adib qorni ba'zi jihatlarini o'ziga qiyoslagani ham ko'rinadi. Qorning tinmay harakat qilib yer yuziga tushishga urinishi ayniqsa Fitratga o'xshaydi. Fitrat ham xalqni ongini o'stirish turmush tarzini farovonlashtirish hamda mustaqil Turkiston qurish uchun tinmay harakatlar qiladi, garchi ular to'laligicha natijasini bermasada harakatdan to'xtamangan. El bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?! misralari ortida Adibning aynan mana shu xalq uchun qilgan harakatlarini qadriga yetmay hukumatga bo'lgan qo'rquvini yenga olmagan xalq

uni qoralashiga bo'lgan alamlari yotadi. Ko'klarda ham ayozlikdan oqarg'an bir ko'z bormikim, yoshi bizning alam, o'lim bilan sug'orilgan deb mana shu jadidchilik harakatini oqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan biror kimsa bormikan?, bizning dardimizga sherik bo'la oladigan insonlar bormikan degan o'tgan-fikrlari bor.

Yerimizning ko'chigiga oqadir.

Bu kichkina, o'ksuz, oppoq bebaklar,

Ucha-ucha yetmay qolg'an tilaklar

Eskan elning ko'llarig'a o'zini

Tashlab qo'yar, borlig'ini unitar.

Urinib-urinib maqsadiga yetolmay qolgan orzu-niyatlari va ohir oqibatda taslim bo'lib jimib qolganini ilojsiz yerga qo'nadigan qorlarga qiyoslaydi.

Titrab-titrab qora yer uzra tushar!

Tushgach, butun tushganlarday toptalar...

Tekkan yerin bilmay bosgan oyoqlar,

Pichratalar buning oppoq betini.

Taqdiri aniq qorlar yerga tushgach boshqalariga o'xshab toptalishini ijodkor juda chiroyli tariflaydi. Ham ochiqdan ochiq o'xshatish shu bilan birga hayolga kelmaydigan, tag ma'noli o'xshatishdir. Fitratning ham hayoti o'zidan oldingi jadidlar singari kechishi, ular kabi tazyiq ostida qolishi anglashiladi. Ayniqsa misra so'ngidagi uch nuqtaning ortida dostonlarga teng dard, alam yashiringan. She'rga yanayam kuchaygan ma'no yuklagan. Qor bosgan oyoqlarni sho'ro hukumati deb qarashimiz mumkin. Fitratning nafaqat bu she'rida, balki hamma ijodida ham mana shunday nola-yu fig'onlar aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. Ma'naviyat. 2004.
2. Ziyo.uz sayti
3. Abdurauf Fitrat. Yurt qayg'usi (she'rlar). Toshkent. Ma'naviyat nashriyori.